Mayor Mirjamolov Sirojiddin Xayriddinovich
O‘zRIIV Malaka Oshirish Instituti Jismoniy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi
E-mail: sirojiddin198029@gmail.com

SPORTNING MINI-FUTBOL TURIDA MALAKALI SPORTCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.11210542

Annotatsiya. Ushbu maqolada mini-futbol turi bo‘cha O‘zbekiston chempionatlarida qatnashadigan jamoalarni texnik-taktik harakatlarining ahamiyati hamda ularning tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mini-futbol, futzal, yuqori malakali sportchilar, musobaqa va mashg‘ulot jarayoni, texnik-taktik harakatlar, dinamika

Mavzusining dolzarbligi. Dunyoda mini-futbol sport turi shiddat bilan rivojlanib, tobora ommaviylashib borayotgan, sport turi bo‘lib, mashg‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy yo’nalishlarini izlab topish, tayyorgarlikning turli bosqichlarida sportchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish talabini qo’ymoqda. Shu bilan birga mini-futbol bo‘yicha musobaqalarda texnik-taktik harakatlar o‘zgaruvchanligi, harakatlarni bajarishda yuqori darajada texnik mahoratni egallaganligi va taktik vaziyatlarni to‘g‘ri hal eta olish xalqaro sport musobaqalarida yangi marralarni qo’lga kiritish imkoniyatlarni ochib bermoqda. Shu sababli yuqori malakali sportchilarning texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishda mini-futbol sport turida tayyorgarlik tizimining har bir bosqichida mashg’ulotlar jarayonini sifatli boshqarish mexanizmlari ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda futbolni ommaviylashtirish va har tomonlama rivojlantirish maqsadida tuman (shahar) bolalar-o‘smirlar sport maktablarida ayollar futboli, futzal (mini-futbol) va sohil futboli guruhlarini tashkil qilish, ular o‘rtasida muntazam ravishda musobaqalarni o‘tkazish mo‘ljallangan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mini-futbol maydonda sportchilarning yuqori shiddatda harakatlari, to‘pning turli yo‘nalishlarga yo‘naltirishlari, texnik usullar bajarish va yuqori taktik kombinatsiyali vaziyatlarni bajarilishi turlicha ko’rinish olmoqda. Bunday sharoitda o‘yinchilar tomonidan to‘pni nazorat qilish va uni yuqori tezlikda boshqarish, sportchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tezlikda harakatlanish va yuqori tezlikdagi texnikani bajarish, tezkor taktik vazifalarni samarali hal qilish uchun yuqori tezlikda texnikani o‘zlashtirish, o‘yinning yaxshilanishi, o‘yin harakatlarining intensivligini oshishi, natijada vaqt va bo‘sh o‘yin maydonining pasayishi tufayli tezlikni rivojlantirish hamda mashg’ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish vazifasi soha olimlari oldida turgan asosiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Mavzusining maqsadi mini-futbol sport turida yuqori malakali sportchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni asoslashdan iborat.

Mavzusining vazifalari: yuqori malakali mini-futbolchilarning musobaqa va mashg‘ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarni takomillshtirishda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish rejasini ishlab chiqish;

mini-futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida tovushlarni eshitish holatlari yordamida turli vaziyatlarda mashq bajarishning model tavsifini ishlab chiqish;

Mini-futbolda texnik-taktik harakatlar hajmi va ko‘p qirraliligini aks etiruvchi miqdoriy ko‘rsatkichlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning bir qator usullari mavjud. Biroq, bu usul-

larning bitta kamchiligi bor: ular o‘yindagi operasion taktik vaziyatning maqsadga muvofiqligiga asoslanib, to‘p bilan individual o‘yin harakatlarining samaradorligini (sifatini) hisobga olmaydi. Shu sababli, ba’zi ekspertlar o‘yin harakatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijalarining axborot mazmunini oshirishga qaror qilib, turli xil baholash koeffitsientlari qo‘llash bo’yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mini-futbol o‘yin tuzilishi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Shunga ko‘ra, ushbu sport turida texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishni, o‘yin tezligini oshirishni, maydonning barcha sohalarida o‘yinchilarning faolligini oshirishni talab qiladi. Bularning barchasi uchun o‘yinchi yaxshi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun sportchilarning optimal jismoniy tayyorgarligini ta’minlash uchun fiziologiya, psixologiya, biokimyoviy va boshqa fanlar sohasidagi mutaxassislar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi zarur hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlarni baholash uslublari va maxsus testlar, ayniqsa ularni integral tartibda tabaqalashtirilgan prinsipga muvofiq shakllantirish masalalari mini-futbolbolchilar tayyorlash amaliyotida yetarli o‘rganilmaganligi aniqlandi.

Biz tomonimizdan olib borilgan pedagogik kuzatish ishlarida O‘zbekiston chempionatidagi bahslar, O‘zbekiston mini-futbol terma jamoasining o‘rtoqlik va saralash bahslari, Osiyo chempionatidagi hamda jahon chempionatidagi bahslar, Jahon chempionatida (2021 yil Litva shahrida bo‘lib o‘tdi) ishtirok etayotgan jamoalarning texnik-taktik harakatlarini turgan holatda (to‘pni uzatish, ikkinchi qavatda o‘yin olib borishda) va harakatlanish (aldab o‘tish, olib qo‘yish, to‘pni uzatish, olib yurish) jarayonidagi holatlari o‘rganildi. Pedagogik kuzatuv ishlarimiz 2020 va 2023 yillar oralig‘ida olib borildi.

O‘zbekiston chempionatidagi oliy liga mini-futbol jamoasi sifatida “Olmaliq”, “Lokomotiv” va “Paxtakor” jamoalarining texnik-taktik harakatlarini n=6 o‘yin davomida o‘rganildi. Unda natijalari 1-jadvalda to‘liq keltirilgan. “Olmaliq” jamoasi 505.7 ta texnik-taktik harakatdan SK-74,3% tashkil etgan bo‘lsa, 145,3 ta (SK-58,6%) dinamik holda va 360,4 ta (SK-80,5%) statik turgan holatda texnik-taktik harakatlarni bajarishgan.

1-jadval

O‘zbekiston chempionatida ishtirok etgan jamoalarni o‘yin davomidagi dinamik (harakatlanishda) va statik (turgan) holatda bajarilgan texnik-taktik harakatlar dinamikasi (n=6)

№	Jamoa	Holat	Ko‘rsatkichlari			
			To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Jami	SK%
1	Olmaliq	1	85,2	60,1	145,3	58,6
		2	290,3	70,1	360,4	80,5
		3	375,5	130,2	505,7	74,3
2	Lokomotiv	1	83,2	55,8	139,0	59,9
		2	278,3	78,4	356,7	78,0
		3	361,5	134,2	495,7	72,9
3	Paxtakor	1	86,2	60,0	146,2	59,0
		2	260,1	78,4	338,5	76,8
		3	346,3	138,4	484,7	71,4
Jami		1	84,9	58,6	143,5	59,1
		2	276,2	75,6	351,9	78,5
		3	361,1	134,3	495,4	72,9

Izoh: *1 – texnik-taktik harakatlarni dinamik holatda bajarilishi; 2 – texnik-taktik harakatlarni statik holatda bajarilishi; 3 – jami.*

"Olmaliq", "Lokomotiv" va "Paxtakor" jamoalarining texnik-taktik harakatlarini o'rtacha ko'rsatkichida 495,4 ta (SK-72,9%) texnik-taktik harakatlarni bajargan bo'lsalar, dinamik holatdagi texnik-taktik harakatlar 143,5 tani (SK-59,1%) va statik holatda 351,9 tani (SK-78,5%) tashkil etadi. Keltirilgan ma'lumotlardan mini-futbol jamoalarimizdagi dinamik bajarilgan texnik-taktik harakatlarni soni va samaradorligi statik holatda bajarilgan texnik-taktik harakatlar soni va samaradorligidan past ekanligi aniqlandi. Bu esa, o'yin davomida harakatlanmagan holatda texnik-taktik harakatlarni ko'p marotaba bajarishlaridan dalolatdir.

Biz tomonimizdan tahlillarni davom ettirib harakatlangan holatda bajarilgan texnik-taktik harakatlarni qaysi harakatlanish tezliklarida amalga oshirilishi bo'yicha ma'lumotlarni keng o'rganildi. Bunda, V= 3 m/s gacha, V=4-6 m/s oralig'ida va V=6 m/s yuqori tezlik holatlaridagi texnik-taktik harakatlari qayd etildi. Biz tomonimizdan olingan natijalarda texnik-taktik harakatlarni bajarishda harakatlanish tezligi oshishi bilan ularni aniqlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Olingan natijalar 1-rasmda keng yoritilgan bo'lib, O'zbekiston chempionatidagi oliy liga jamoalarni 18 ta o'yinlarini, O'zbekiston terma jamoasini 20 ta va jahon chempionatidagi o'yinlarni 16 tasi o'rtacha ko'rinishi (X) keltirilgan.

Rasmdagi natijalarda kelib chiqib, biz O'zbekiston chempionatidagi bahslarda texnik-taktik harakatlarni 78% harakatlanmagan holda bajarilsa, 29% harakatlarni mini-futbolchilar tomonidan harakatlangan holda bajarishlari aniqlandi. O'zbekiston terma jamoasini bahslaridagi texnik-taktik harakatlar 67% harakatlanmagan bo'lsa, 35% harakatlangan holda bajarganlar. Jahon chempionatidagi bahslarda esa, 56% ga 44% tashkil etgan. Jahon chempionatidagi o'yinlarda ishtirok etayotgan mini-futbol jamoalari 44% harakatlangan holda bajarishlari aniqlandi.

Biz tomonimizdan periferik ko'rish tizimi darajasini baholash maqsadida to'pni sherigiga turli tezliklarda to'p uzatmalarni amal-

2-jadval

Turli harakatlanish tezliklarida mini-futbolchilar tomonidan bajarilgan texnik-taktik harakatlar

№	Jamoa	Ko'rsatkichlar								
		3-m/s gacha			4-6 m/s oraligida			6- m/s yuqori		
		∑	+	SK%	∑	+	SK%	∑	+	SK%
1	Olmaliq	64,7	47,1	72,8	51,7	29,6	57,3	28,9	8,5	29,4
2	Lokomotiv	63,2	47,0	74,4	47,6	28,1	59,0	28,2	8,1	28,7
3	Paxtakor	67,8	49,6	73,2	51,4	29,1	56,6	27,0	7,5	27,8
Jami		65,2	47,9	73,4	50,2	28,9	57,6	28,0	8,0	28.6



Izoh: *O'CH — O'zbekiston chempionati; O'TJ – O'zbekiston terma jamoasi; JCH – Jahon chempionati*

1-rasm. Turli saviyadagi chempionatlarda texnik-taktik harakatlarini dinamik va statik (harakatlanishda va turgan) bajarish holatlari (foizda %)

ga oshirish qobiliyatini tahlil qildik. Bu harakatlanish tezliklarida sherigiga to‘pni uzatib berish texnik harakatlarni samarali bajarishlari periferik ko‘rish tizimini yuqori darajada rivojlanganligidan dalolatdir. Biz tomonimizdan turli saviyadagi o‘yinlardagi to‘p uzatmalarni pedagogik kuzatuv orqali soni va samaradorlik ko‘rsatkichi o‘rganildi Bu kuzatishlar uchta harakatlanish tezlik zonalarida to‘p uzatmalarni sherigiga yetkazib berish holatlari tahlil qilgan holda yutuq va kamchiliklari aniqlandi (3-rasmga qarang).

O‘zbekiston chempionatidagi bahslarda jami V=3 m/s.gacha =88.98 ta bo‘lsa, samaradorlik ko‘rsatkichi (SK) 58.3%, V=4-6 m/s orasida 104.65 ta va SK-52,46% bajarganlar. O‘zbekiston chempionatidagi V = 3 m/s tezlikda 44.51 tani SK-82,51% bajargan bo‘lsalar, terma jamoa safidagi to‘p uzatmalar 48.75 tani, SK-79.12% tashkil etgan. V = 4-6 m/s da 29.31 ta SK-61.21% va 39,12 ta to‘p uzatmalardan SK-57,12% tashkil etgan. Eng past to‘p uzatmalar soni va samaradorlik ko‘rsatkichi V=6 m/s.dan yuqori tezlikda qayd etildi.

Texnik-taktik harakatlarni bajarishdagi holatlarda biz turli tovushli vaziyatlarda mini-futbolchilar tomonidan bajarilgan texnik-taktik harakatlarni turli desibel holatda o‘zgarish dinamikasi ham o‘rgandik.

3-jadval

Turli tovushli vaziyatlarda mini-futbolchilar tomonidan bajarilgan texnik-taktik harakatlarni turli desibel holatda o‘zgarish dinamikasi

№	Jamoa	Ko‘rsatkichlar								
		0-80 db gacha			80-100 db oraligida			100 db yuqori		
		∑	+	SK%	∑	+	SK%	∑	+	SK%
1	Olmaliq	294,7	235,4	79,9	163,5	114,9	70,3	47,5	25,2	53,1
2	Lokomotiv	290,3	239,1	82,4	138,8	92,3	66,5	66,6	30,1	45,2
3	Paxtakor	263,6	215,1	81,6	150,3	99,1	65,9	70,8	32,1	45,3
Jami		282,9	229,9	81,3	150,9	102,1	67,6	61,6	29,1	47,9



2-rasm. Turli chempionatida texnik-taktik harakatlar soni va samaradorligi ko‘rsatilgan (O‘zbekiston chempionati n=30, O‘zbekiston terma jamoasi n=15)



3-rasm. Oliy liga mini-futbol jamoalarining turli db shovqinli vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarni bajarishining foizdagi ko‘rinishi

Oliy liga jamoalari sifatida o‘rgilayotgan jamoalarining texnik-taktik harakatlarini turli desibelda o‘rganganimizda qiziqarli ma’lumotlarni qo‘lga kiritdik. Olingan natijalardan biz texnik-taktik harakatlarni bajarishda turli tovush shovqinlari sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, yuqori tovush desibelda texnik-taktik harakatlarni soni va samaradorligi tushib ketish olingan natijalardan aniqlandi.

Bu ma’lumotlarni keng yoritib berish uchun biz 4-rasm ishlab chiqdik. Bu rasmda “Olmaliq”, “Lokomotiv” va “Paxtakor” jamoalarining texnik-taktik harakatlarini turli tovush shovqinlarda bajarishi foizda keltirilgan (4-rasm garang).

Natijalarda “Olmaliq” jamoasi 0-80 db shovqinli vaziyatlar bajarilgan texnik-taktik harakatlar 58,3%, 81-100 db shovqinli vaziyatlarda 32,3% va 100 db yuqori shovqinda 9,4%, “Lokomotiv” jamoasi 58,6%, 28% va 13,4% va “Paxtakor” jamoasi 54,4%, 31% va 14,6% tashkil etgan. Olingan natijalarda asosiy o‘yin vaziyatlari 0-80 db shovqinlari vaziyatlarda bajarilishi aniqlandi. Bu esa bizning o‘yinchilarning yuqori shovqinli vaziyatlarga texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha ma’lumotlar murabbiylarda ega emasligini bildiradi.

Bizning e’tiborimiz O‘zbekiston terma jamoasining o‘yin davomidagi turli shovqinli vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarni o‘rtoqlik uchrashuvlarida va asosiy o‘yinlarda bajarilishi tahlil qilindi.

4-jadval

O‘TJ turli tovushli vaziyatlarda mini-futbolchilar tomonidan bajarilgan texnik-taktik harakatlarni turli desibel holatda o‘zgarish dinamikasi

№	Jamoa	Ko‘rsatkichlar								
		0-80 db gacha			80-100 db oraligida			100 db yuqori		
		∑	+	SK%	∑	+	SK%	∑	+	SK%
	O‘rtoqlik o‘yinlar	300,5	256,3	85,3	207,3	165,2	79,7	64,8	29,6	45,7
	Asosiy o‘yinlar	320,8	269,6	84,0	213,3	149,1	69,9	61,8	25,3	40,9
Jami		300,5	256,3	84,7	210,3	157,2	74,8	63,3	27,5	43,3

Izoh: *O‘zbekistonda o‘tkazilgan O‘rtoqlik va Asosiy o‘yinlar olingan.*

Bu yerdagi ma’lumotlarda biz O‘zbekiston terma jamoasining o‘rtoqlik va asosiy chempionatlardagi (Osiyo chempionati va jahon chempionati saralash) o‘yinlardagi turli shovqinli desibeldagi texnik-taktik harakatlarni bajarilishi bo‘yicha ko‘rsatkichlarda farq borligini aniqladik. O‘rtoqlik uchrashuvlarda 0-80 db shovqinlarda 300,5 ta (+256,3), 80-100 db shovqinlarda 207,3 (+165,2) va 100 db shovqinli holatlarda 64,8 (+29,6) texnik-taktik harakatlarni bajargan bo‘lsalar, asosiy o‘yinlarda esa, 0-80 db shovqinlarda 320,8 ta (+269,6), 80-100 db shovqinlarda 213,3 (+149,1) va 100 db shovqinli holatlarda 61,8 (+25,3) texnik-taktik harakatlarni bajargan. Bu ma’lumotlardan asosiy o‘yinlardagi bajarilgan texnik-taktik harakatlarni bajarish soni 100 db bo‘lgan tovush shovqinlarida ko‘p bo‘lsa ham samaradorlik ko‘rsatkichlari yuqori emasligi aniqlandi.

Bu ma’lumotlarni foiz ko‘rinishda 5-rasmda keng ochib berishga harakat qildik. Natijalarda o‘rtoqlik uchrashuvida 48,1% va asosiy o‘yinlarda 46% harakatlar 80 db bo‘lgan shovqinlarda bajarishi, 80-100 db shovqinlarda 37,1% o‘rtoqlik o‘yinlarida va 37,4% asosiy o‘yinlardagi bajarilishi va 100 db shovqinlarda 14,8% o‘rtoqlik va 16,7% asosiy o‘yinlarda tashkil etgan.

Olingan natijalardan o‘rtoqlik va asosiy o‘yinlarda yuzaga keladigan shovqinlar orasidagi farq borligi bu esa texnik-taktik harakatlarni bajarish holatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijalarni tahlil qilishda biz O‘zbekiston chempionatidagi faoliyat olib boruvchi mini-futbol jamoalarning o‘yin davomidagi hamda O‘zbekiston terma jamoalar o‘rtasidagi o‘yinlardagi texnik-taktik harakatlarni turli ditsebelda bajarilish soni va samaradorligi taqqoslandi.



4-rasm. O‘zbekiston terma jamoasining texnik-taktik harakatlarni bajarishda turli shovqinli vaziyatlardagi foizdagi taqsimlanishi



Izoh: *Jami TTH 1 – jami O‘zbekiston chempionatidagi texnik-taktik harakatlari; jami TTH 2 – O‘zbekiston terma jamoa o‘yinlaridagi texnik-taktik harakatlari.*

5-rasm. O‘zbekiston chempionatidagi va O‘zbekiston mini-futbol terma jamoa o‘yinlaridagi turli shovqinlarda bajarilgan texnik-taktik harakatlar soni va samaradorligi

Biz tomonimizdan natijalarni taqqoslash ishlarida O‘zbekiston chempionatidagi bajarilgan o‘yinlardagi jami texnik-taktik harakatlar 57,1%, 80 db.gacha shovqinli vaziyatlarda bajarilgan bo‘lsa, samaradorlik ko‘rsatkichi 81,3% tashkil etgan. Olingan natijalardan O‘zbekiston chempionatidagi o‘yinlarda bajariladigan texnik-taktik harakatlarni asosiy foizi 80 db.gacha bo‘lgan shovqinli holatlarda o‘tkazilishini aniqladik. Bundan tashqari O‘zbekiston terma jamoasining o‘yinlaridagi shovqinlar 100 db.gacha bo‘lgan shovqinlarda bajarishi qayd etgan bo‘lsak, ular orasida samaradorlik ko‘rsatkichlarida ham katta farq bordir.

O‘quv-mashg‘ulot jarayonini kuzatish orqali biz 20 ortiq o‘quv mashg‘ulotlarni tahlil qildik hamda ularni taqsimotini o‘rtacha () ko‘rsatkichini foizda keltirib o‘tdik. O‘quv-mashg‘ulotlarida asosiy o‘yin vaziyatlarda foydalaniladigan texnik-taktik harakatlarni tanlab olingan qaydagilarni o‘z ichiga oladi: to‘pni bir-biriga uzatish (2 kishi); to‘pni bir-biriga uzatish (3 kishi) to‘pni bir-biriga uzatish (4 kishi), darvozaga zarba berish, to‘p uzatish va zarba berish, standart vaziyatdan zarbalar.

Olingan natijalarda turgan holatda bajariladigan texnik-taktik harakatlarda (6-jadval), to‘pni bir-biriga uzatishda (2 kishi) 43.3%, to‘pni bir-biriga uzatish (3 kishi) 38.5%, to‘pni bir-biriga uzatish (4 kishi) 35.5%, darvozaga zarba berish 41.5%, to‘p uzatish va zarba berish 32.5% va standart vaziyatdan zarbalar 46.2% tashkil etgan. Jadvaldagi ma’lumotlardan biz o‘quv mashg‘ulotida to‘pni bir-biriga uzatishda (2 kishi), to‘pni bir-biriga uzatish (3 kishi), to‘pni bir-biriga uzatish (4 kishi), darvozaga zarba berish, to‘p uzatish va zarba berish va standart vaziyatdan zarbalar mashqlarini turli tezliklarda bajarishlarida farq borligini aniqladik. Bunga ko‘ra mashqlarni foiz bo‘yicha katta qismi statik holda bajariladigan texnik-taktik harakatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Dinamik holda V = 3 m/s gacha bo‘lgan tezlikda V = 3-6 m/s va V = 6 m/s yuqori tezliklarda nisbatan ko‘p harakatlanishlari aniqlandi. Bu ma’lumotlarda o‘quv mashg‘ulotlarda texnik-taktik harakatlarni bajarish holati yuqori tezlikda amalga oshirilmasligidan dalolatdir (6-jadvalga qarang).

O‘quv-mashg‘ulot jarayonida biz tomonimizdan texnik-taktik harakatlarni turli desibelli tovushlarda bajarilishi ham e’tiborimizni tortdi. Bu natijalardan o‘quv mashg‘ulot jarayoni 80 db.gacha bo‘lgan tovushli vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarni bajarishlarni aniqlandi. Agar jamoalarni bu



6-rasm. O‘quv-mashg‘ulotida texnik-taktik harakatlarni turli shovqinli vaziyatlarda o‘quv-mashg‘ulot jarayonida bajarilishi (%)

tovushli vaziyatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, “Paxtakor” jamoasi 65.2%, “M.Chirchiq” jamoasi 61.5% va “Lokomotiv” jamoasi 67.5% 80 db.gacha bo‘lgan tovushli vaziyatlarda, “Paxtakor” jamoasi 31.2%, “M.Chirchiq” jamoasi 29.8% va “Lokomotiv” jamoasi 27.6% 81-100 db oralig‘idagi tovushli vaziyatlarda va “Paxtakor” jamoasi 3.6%, “M.Chirchiq” jamoasi 8.7% va “Lokomotiv” jamoasi 4.9% 100 db yuqori tovushli vaziyatlarda texnik-taktik harakatlarni bajarishlari aniqlandi (7-rasmga qarang).

Biz bu natijalardan mini futbolchilarning o‘quv mashg‘ulotlari yuqori tovush disebali holatda olib borilmasligi aniqladik. Ammo, musobaqa sharoitidagi holatlarda biz yuqori tovushli vaziyatlarni aniqladik. Bu ma’lumotlarda o‘quv-mashg‘ulotda olib borilgan texnik-taktik harakatlarni musobaqa sharoitida olib boriladigan texnik-taktik harakatlarni bajariladigan tovushli vaziyatlarga mos emasligini aniqladik.

Bundan tashqari biz tomonimizdan ko‘rish analizatorining tinch va yuqori shiddatli vaziyatlardagi holatlarini o‘rgandik . “Kompyuter perimetriyasi” uskunasi orqali mini-futbolchilarning maydonni ko‘rish harakatlarini baholashda tinch holatda va 160 zar/daq yuqori bo‘lgan shiddatda ko‘zning yuqori ko‘rish maydonining chegarasi, ko‘zning pastki ko‘rish maydonining chegarasi, ko‘zning ichki ko‘rish maydonining chegarasi va ko‘zning tashqi ko‘rish maydonining chegarasi o‘rganildi. O‘rganish jarayonida biz oliy liga jamoalarida “Paxtakor”, “Lokomotiv” va “Bunyodkor” jamoa futbolchilari jalb qilinib ulardagi ko‘rish maydonining chegaralari aniqlandi. Ko‘zning yuqori ko‘rish maydonining chegarasidagi natijalarga e’tibor beradigan bo‘lsak, “Bunyodkor” jamoasi tinchi holatda ko‘rish chegarasi 23,08±1,73, “Lokomotov” jamoasi 23,17±2,52 va “Paxtakor” jamoasi 24,50±3,55 gradus natijasini qayd etgan. Ko‘zning pastki ko‘rish maydonining chegarasini qayd etishda ham qiziqarli natijalarni qo‘lga kiritdik. Ya’ni, “Bunyodkor” jamoasi tinchi holatda ko‘rish chegarasi 29,17±2,48, “Lokomotov” jamoasi 28,67±3,23 va “Paxtakor” jamoasi 29,50±4,60 gradus natijasini qayd etgan. Ko‘zning ichki ko‘rish maydonining chegarasi “Bunyodkor” jamoasi tinch holatda ko‘rish chegarasi 44,75±4,85, “Lokomotov” jamoasi 43,08±4,52 va “Paxtakor” jamoasi 43,92±4,66 gradus natijasini qayd etsa, ko‘zning tashqi ko‘rish maydonining chegarasida “Bunyodkor” jamoasi 35,83±6,69, “Lokomotov” jamoasi 34,17±6,69 va“Paxtakor” jamoasi 33,33±6,51 gradus natijasini qayd etgan.

Bu jadvaldagi natijalar barchasi tinch holatda amalga oshirilgan bo‘lib, “Kompyuter perimetriyasi” uskunasi orqali mini-futbolchilarning ko‘rish maydonlarini baholashda yuqori darajadagi gradus holati kuzatilmagan. Ammo, biz sinaluvchilarni yuqori darajadagi yuklamadan keyin YUQS 160 zar/daq yuqori holatga olib chiqish orqali ko‘rish maydoning chegarasini qayta o‘lchandi. Kutilmaganda yuklamadan keyingi o‘zgarishlar ijobiy ko‘rinishga ega bo‘ldi. Ya’ni, 10-20o ko‘rish maydon chegarasi kengayishi kuzatildi. Bundan tashqari, ko‘zning ichki maydonining chegarasi, ko‘zning yuqori, pastki va tashqi ko‘rish maydonidan yuqori ko‘rish kuzatildi.

Bu holatni biz, 2-rasmda bu ma’lumotlar keng ko‘rsatib o‘tilgan. Ya’ni, “Bunyodkor”, “Lokomotiv” va “Paxtakor” jamoa futbolchilarning natijalarini o‘rtacha holati keltirilgan.

6-jadval

"Kompyuter perimetriyasi" uskunasi orqali mini-futbolchilarning ko'rish maydonlarini baholash holati X±σ (n=38)

№	Ko'rish maydonining chegaralari		Jamoalar			
			Bunyodkor n=12	Lokomotiv n=14	Paxtakor n=12	Jami
1	Ko'zning yuqori ko'rish maydonining chegarasi	Norma	Yuqori ko'rish maydonining chegarasi 50⁰			
		Tinch	23,08±1,73	23,17±2,52	24,50±3,55	23,58±2,60
		Shiddat	33,67±4,50	34,50±4,68	35,17±5,08	34,44±4,75
2	Ko'zning pastki ko'rish maydonining chegarasi	Norma	Pastki ko'rish maydonining chegarasi 60⁰			
		Tinch	29,17±2,48	28,67±3,23	29,50±4,60	29,11±3,44
		Shiddat	46,67±4,92	47,50±4,52	48,33±5,77	47,50±5,07
3	Ko'zning ichki ko'rish maydonining chegarasi	Norma	Ichki ko'rish maydonining chegarasi 60⁰			
		Tinch	44,75±4,85	43,08±4,42	43,92±4,72	43,92±4,66
		Shiddat	58,33±3,89	59,17±2,89	59,17±2,89	58,89±3,22
4	Ko'zning tashqi ko'rish maydonining chegarasi	Norma	Tashqi ko'rish maydonining chegarasi 60⁰			
		Tinch	35,83±6,69	34,17±6,69	33,33±6,51	34,44±6,63
		Shiddat	49,42±3,73	48,83±4,65	48,25±5,29	48,83±4,56



7-rasm. Mini-futbolchilarning ko'zning ko'rish maydonining chegarasi o'rtacha (X) tinch va shiddatda ko'rish holati

Natijalardan tinch holatda ko'zning yuqori ko'rish maydonining chegarasi 23,58, ko'zning pastki ko'rish maydonining chegarasi 29,11, ko'zning ichki ko'rish maydonining chegarasi 43,92, ko'zning tashqi ko'rish maydonining chegarasi 34,44 gradusni tashkil etsa, yuqori yuklamada bu natijalarda ko'zning maydoni ko'rish chegarasi kengaygan.

"Kompyuter perimetriyasi" uskunasi orqali mini-futbolchilarning ko'rish maydonlarini baholash holatidan kelib chiqqan vaziyatlardan mini-futbolchilarning ko'zning ko'rish maydonining chegarasi oshirishga oid mashqlar majmuasi ishlab chiqildi (12-rasmga qarang).

Mini-futbolchilarning ko'zning ko'rish maydonining chegarasi oshirisha oid mashqlar majmuasi tinch holatdagi va yuqori shiddatda bajariladigan mashqlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa

Texnik-taktik harakatlarni bajarishda o'yin davomida "Lokomotiv" jamoasi 139 ta (28%) TTH, "Paxtakor" jamoasi 146,2 tasi (30,1%) TTH va "Olmaliq" jamoasi 145,3 tani (28,7%) TTH harakatlangan holda bajarishgan. O'zbekiston chempionatidagi bahslardagi texnik-taktik harakatlarni 78% harakatlanmagan holda bajarilsa, 29% harakatlarni mini-futbolchilar tomonidan harakatlangan holda bajarishlari aniqlandi.

O‘zbekiston terma jamoasini bahslaridagi texnik-taktik harakatlar 67% harakatlanmagan bo‘lsa, 35% harakatlangan holda bajara olishi aniqlandi. Bu esa, jahon chempionatidagi bahslarda esa, 56% ga 44% tashkil etgan. Jahon chempionatidagi o‘yinlarda ishtirok etayotgan mini-futbol jamoalari 44% harakatlangan holda bajarishlari kuzatildi. Keltirilgan ma’lumotlardan mini-futbol jamoalarimizdagi harakatlanish orqali bajarilgan texnik-taktik harakatlarni soni va samaradorligi harakatlanmagan holatda bajarilgan texnik-taktik harakatlar soni va samaradorligidan past ekanligi aniqlandi.

O‘zbekiston chempionatidagi o‘yinlardagi futbolchilarning to‘p uzatmalarini uchta V=3 m/s, V=4-6 m/c va V=6 m/s yugurish harakatlanish tezliklarida tahlil qilinganda O‘zbekiston chempionatidagi bahslarda jami V=3 m/s.gacha =88.98 ta SK-58.3%, V=4-6 m/s tezlikda 104.65 ta SK-52,46% ga yaxshilanganligi kuzatildi. O‘zbekiston chempionatidagi V=3 m/s tezlikda 44.51 tani SK-82,51% bajargan bo‘lsa, terma jamoa safidagi to‘p uzatmalar 48.75 tani, SK-79.12% tashkil etgan. V=4-6 m/s da 29.31 ta SK-61.21% va 39,12 ta to‘p uzatmalardan SK -57,12% tashkil etgan. Eng past to‘p uzatmalar soni va samaradorlik ko‘rsatkichi V=6 m/s.dan yuqori tezlikda qayd etilishi aniqlandi.

O‘zbekiston chempionatida ishtirok etayotgan “Olmaliq” jamoasi 0-80 db shovqinli vaziyatlar bajarilgan texnik-taktik harakatlar 58,3%, 81-100 db shovqinli vaziyatlarda 32,3% va 100 db yuqori shovqinda 9,4%, “Lokomotiv” jamoasi 58,6%, 28% va 13,4%, “Paxtakor” jamoasi 54,4%, 31% va 14,6% tashkil etgan. O‘zbekiston chempionatidagi o‘yinlarda bajariladigan texnik-taktik harakatlarni asosiy foizi 80 db.gacha bo‘lgan shovqinli holatlarda o‘tkazilishi aniqlandi. Bundan tashqari O‘zbekiston terma jamoasining o‘yinlaridagi shovqinlar 100 db.gacha bo‘lgan shovqinlarda TTH bajarishi qayd etgan bo‘lsa, ular orasida samaradorlik ko‘rsatkichlarida ham katta farq borligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.S.Usmanxodjayev., Sh.X.Isroilov., A.A.Pulatov., Sh.A.Pulatov. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik. Toshkent. 2015. 265 s.

2. K.Rahimqulov. Milliy harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2012. 142 s.

3. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146. Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Aprel, 2024 832

4. Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 164-165.

5. Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(11), 46-49.

6. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor:

7. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Аминов, Б. У. (2023). Новые технологии для развития силовых качеств у студентов. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 217-225).

8. Dexqonov, B. (2023). Preparation of future physical education teachers for innovative activities. Models and methods in modern science, 2(12), 82-86.

9. Қувватов У.Т Якубжонов, И. А., & Шокиров, Ш. Г. (2022). "Развитие воспитательной работы в студенческой футбольной команде". In International conference: problems and scientific solutions (Vol. 1, pp. 140-147).